



UDK: 17.316.7

Maxmut MAMATOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori v.b., f.f.d
E-mail: mmamatov@shdpi.uz
<https://orcid.org/0009-0008-8748-2466>

TIQXMI professori, f.f.d Q.Nazarov taqrizi asosida

MUSTAQIL RIVOJLANISH JARAYONIDA MA'NAVY HAYOT VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqil rivojlanish jarayonida ma'naviy hayot va barkamol avlodni tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari, inson kamoloti bilan bog'liq, turlicha namoyon bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy jihatlar, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyatini rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan. Yoshlarini munosib tarbiyalashda ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni zarurligi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma'ruza va asarlari, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Farmon va Qarorlari orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyani singdirish va rivojlanishiga oid fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, yangilanayotgan, qonun, Farmon va Qarorlar, harakat, tamoyil, qadriyatlar, ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, zamonaviy ta'lim, rivojlanish.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ И ВОСПИТАНИЯ ВСЕСТОРОННЕ РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются специфические аспекты духовной жизни и воспитания всесторонне развитого поколения в процессе самостоятельного развития, в этой сфере анализируются различные социально-философские, культурно-просветительские аспекты, связанные с совершенством человека, процессами духовного развития и настроения населения, особенно молодежи. Приведены необходимые научно обоснованные меры по достойному воспитанию молодежи, доклады и работы Президента Шавката Мирзиёева, законы, указы и постановления Республики Узбекистан, идеи по развитию духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: общество, реформирование, право, Указы и Постановления, действие, принцип, ценности, духовность, духовно-нравственное воспитание, современное образование, развитие.

SPECIFIC ASPECTS OF SPIRITUAL LIFE AND UPBRINGING OF A HARMONIOUS GENERATION IN THE PROCESS OF INDEPENDENT DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the peculiarities of spiritual life and upbringing of the perfect generation in the process of independent development, socio-philosophical, cultural and educational aspects related to human maturity, manifested in different ways, especially the processes of developing the psyche and mood of young people. The need for scientifically based measures in the proper education of their youth, lectures and works of our President Shavkat Mirziyoyev, opinions on the absorption and development of spiritual and moral education through the laws, decrees and decisions of the Republic of Uzbekistan were given.

Keywords: society, renewing, law, decrees and decisions, action, principle, values, spirituality, spiritual and moral education, modern education, development.

Kirish. Ma'lumki, jamiyatning ajralmas qismi hisoblangan yoshlar masalasi hamisha turli soha sohiblarini qiziqitirib kelgan. Turli soha mutaxassislari yoshlar masalasini o'z yo'nalishlari doirasida tahlil qilib kelganlar. Masalan, faylasuflar yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va faoliyatini falsafiy jihatdan o'rganishgan, huquqshunoslar esa ularning huquqlari hamda huquqiy kafolatlari masalalarini tadqiq etganlar. Tarixchilar yoshlarning tarixiy jarayonlardagi o'rni va ahamiyatini yoritgan bo'lsalar, psixologlar ularning ruhiy holati va xarakter xususiyatlarini tahlil etganlar. Pedagoglar yosh avlodni ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirish masalalariga e'tibor qaratgan bo'lsa, siyosatshunoslar yoshlarning siyosiy hayotdagi roli va ishtirokini o'rganib kelishgan. Sh.M.Mirziyoyev tabiri bilan aytganda "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim

olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir"[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shu bois, jamiyatdagi yosh avlodning bilim egallashi, ma'lum bir kasb-hunarni puxta o'zlashtirishi, mustahkam dunyoqarashni shakllantirishi, jismoniy barkamollikka erishishi hamda ma'naviy jihatdan boyib borishi natijasida ular o'z hayoti va kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi. "O'tmishdagilar, – deb yozgan edi Abu Nasr Forobiy, – o'zlarida bo'lgan zavq-na'sha, lazzatni o'zlaridan keyingi keladigan avlod orqali nasldan-naslga qoldirib keladilar. Shu tartibda vaqt va zamon o'tishi bilan kishilarda zavq ustiga zavq, na'sha ustiga na'sha qo'shilib, ulardagi lazzatlanish, zavqlanish obyekti orta boradi. Mana bu holni biz farovonlik, haqiqiy baxt-saodat deb tasvirlaymiz"[2]. Tarix sahifalariga nazar tashlaganimizda, yoshlarning ma'naviy kamoloti, dunyoqarashi hamda axloq-odobiga bag'ishlab bebaho meros qoldirgan allomalar nomlarini e'tirof etish zarur. Xususan,

Nizom ul-Mulkning “Siyosatnoma” va “Rushnoinoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’atit turk”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, shuningdek, Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub” hamda “Vaqfiya” kabi chuqur ma’naviy mazmunga ega asarlari bugungi kunda ham o’z dolzarbligini saqlab qolgan. Ushbu durdona asarlar yosh avlod tarbiyasida, ularning ma’naviy olamini boyitishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Yoshlar ma’naviyati, istiqbol haqida fikr yuritar ekanmiz, buyuk qadriyatlardan hisoblanmish qadimgi zardushtiylilik dini, buddizm, xristian va islom kabi jahon dinlarida yoshlarga bo’lgan juda ko’p dasturlarni ham sira unutmashimiz darkor. Har bir jamiyat o’zining ijtimoiy sharoiti, milliy xususiyatlari va ma’naviy qadriyatlariga tayangan holda yosh avlodni tarbiyalaydi, ularning ma’naviy dunyosini boyitadi hamda dunyoqarashini shakllantiradi. Shu bilan birga, yoshlar kattalar tomonidan to’plangan tajriba va bilimlardan foydalanib, uni amaliy faoliyatda qo’llaydilar hamda o’zlariga mos bo’lgan qarash va ta’limotlar asosida hayotda o’z yo’llarini belgilaydilar. Ular o’zlariga ma’qul an’ana, qadriyatlarni saqlab qolib, jamiyat taraqqiyoti uchun halaqit beradigan tomonlarini ulotirib yoki o’zgartirib, tegishli ishda qatnashadilar. Mumtoz falsafa namoyandalari tarixning avlodlar almashinuvi ekanligini va bunda har bir avlod o’zidan avval yashagan ajdodlarning boyligidan, ishlab chiqaruvchi kuchlaridan, materiallaridan foydalanishini, shu bilan birga eski sharoitlarni o’z faoliyatlarini vositasida o’zgartirib o’z manfaatlariga moslashtirib borishini ta’kidlagan edilar. Aynan ana shu hayot haqiqati mamlakatimizning istiqbolga erishgan dastlabki o’n yilliklarda ham, bugungi kunda ham o’z isbotini topmoqda. O’zbekiston Respublikasi olimlaridan Q.N.Nazarov, B.To’ychiyev, O.R.Musaev, B.Aliev, A.Mavrolov kabilarning asarlari ham yoshlarni tarbiyalash uchun muhim. “Milliy iftixordek ulug’vor va teran tuyg’uning paydo bo’lishi esa, ajdodlarimizdan meros qolgan bebaho madaniyatni bilish, qadrlash va yanada boyitish bilan bog’liqdir. Mana shunday ezgu tuyg’u va bunyodkor g’oyalar ongimiz va qalbmizdan joy olishi uchun halqimiz yaratgan betakror madaniyat va ma’naviyatni egallashimiz juda muhimdir”[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon 34 yildan ortiqroq vaqt o’tdi. Bu qisqa davrda barcha sohalarida amalga oshirilgan tub islohotlar, demokratik o’zgarishlar o’z samarasini bermokda. “Yangi O’zbekiston strategiyasi va unda ilgari surilgan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyil xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Xullas, “Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab berdi. Biz bundan buyon faoliyatimizni “inson-jamiyat-davlat” tamoyil asosida tashkil etamiz”[4] Mazkur jarayonda ma’naviyat va ma’rifat sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan ishlarning keng jamoatchilik ishtirokida ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek, ijtimoiy-ma’naviy, ilmiy-ma’rifiy hamda ta’lim-tarbiya yo’nalishlarida tizimlilik, ilmiy asoslanganlik va izchillikka erishish masalalariga alohida e’tibor qaratish ushbu tadqiqot metodologiyasining poydevorini tashkil etadi. “Ayni paytda fuqarolar ma’naviy barkamolligini ta’minlash, ular orasida teng va o’zaro manfaatli munosabatlarni ta’minlash, erkin tafakkur tarzi, inson huquqlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish va qarashlar xilma-xilligini rivojlantirish, inson ruhiyati va kamolotiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi g’oya va ta’limotlarga murosasiz kayfiyatini tarbiyalash ham bu boradagi dolzarb vazifalar sirasiga kiradi”.[5] Ma’lumki, insoniyat tarixining ko’p ming yillik tajribasi shuni ko’rsatadiki, har qanday tub o’zgarish yoki inqilobiy yangilanish ilm va ma’rifatsiz, ma’naviyat va

madaniyatsiz yuzaga kelmaydi. Bunga barcha Renessans davrlarining tarixiy jarayonlari yaqqol dalil bo’la oladi. Shu bois, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so’ng, ushbu yo’nalishga alohida e’tibor qaratish davlat siyosatining muhim yo’nalishlaridan biriga aylandi. “Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo’nalishi, ya’ni ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish sohasidagi ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlar alohida ahamiyatga molikdir” [6]

Tahlil va natijalar. Yangi O’zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-ma’naviy hamda ilmiy-ma’rifiy yo’nalishlarini yanada takomillashtirish, jamiyatda ma’naviy barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlash, qonun ustuvorligi hamda xavfsizlik kafolatlarini mustahkamlash, shuningdek, Uchinchi Renessans g’oyalarini ro’yobga chiqaruvchi, yuksak ma’rifat va tafakkur egasi bo’lgan avlodni voyaga yetkazish, barkamol shaxsni shakllantirish mamlakatimizda ma’rifatli jamiyatni qurishning asosiy yo’nalishini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, tarix fanlari doktori, professor A. Mavrolov ta’kidlaganidek, ushbu jarayon har tomonlama uyg’un rivojlanishni ta’minlashda g’oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

“Boy o’zbek madaniyati bugun o’zining milliyligini saqlab qolgan holda, barkamol shaxsni tarbiyalash, barqaror ijtimoiy-madaniy muhitni barpo etish, jamiyatda sog’lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirish, odamlarda tafakkur o’zgarishlarini sodir etsagina o’zining asosiy vazifalarini bajargan bo’ladi. Ana shundagina bugun yurtimizda keng jaranglayotgan “Yangi O’zbekiston – Uchinchi Renessans sari” shiorini real harakatga keltira olamiz”[7] Mazkur yo’nalishda yoshlarga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki O’zbekiston – yoshlar mamlakati hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakat aholisi tarkibining qariyb 60 foizini yosh avlod vakillari tashkil etadi. “Inson barkamolligi” kitobining mualliflari akademik E.Yusupov va professor F. Ismoilov chuqur taassuf bilan yozganlaridek, bunday jamiyatda “badnasf va dilozor, xudbin va xushomadguy, dag’al va loqayd va shunga o’xshash qusurlarga ega bo’lgan shaxslar qayoqdan paydo bo’layapti o’zi?” [8] Shunday ekan, yoshlar masalasi har doim e’tiborda bo’ladi. Yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishlari uchun zarur barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, ularni madaniyat va san’at sohalariga, jismoniy tarbiya hamda sport faoliyatiga keng jalb etish, axborot texnologiyalari bo’yicha bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish, kitob o’qishga bo’lgan qiziqishini kuchaytirish — bularning barchasi mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo’lidagi muhim omillar hisoblanadi. “Ma’naviyat sohasiga aloqador bo’lgan barcha tuzilmalar, jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, odamlarda davlat siyosatiga daxldorlik tuyg’usini shakllantirishga xizmat qiladigan ma’naviy tarbiya tizimini yaratish ishiga jalb qilinishi kerak”.[9] Buni biz mamlakatimiz mustaqillikni qo’lga kiritgan paytidayoq belgilangan tadbirlardan bilsak bo’ladi. Mamlakatimiz yangi jamiyat qurish borasida eskidan meros bo’lib o’tgan hamma tuzilmalar, yo’nalishlar, muassasalardan voz kechdi va mutlaqo yangi istiqloq yo’lini tanlab, yangi boshqaruv tuzilmalarini tashkil qilishni lozim topdi. Shunday ekan, o’tish davrida barcha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy masalalar bilan bir qatorda yoshlar siyosati masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar jamiyatda yashab faoliyat ko’rsatayotgan guruhlar orasidagi endigina o’ziga hayotiy tajriba orttirib kelayotgan va bilim egallayotgan sotsial-demografik guruhdir. Yoshlik shijoatga boy, qahramonlik va mehnat qilishga tayyor, romantikaga berilgan davrdir.

Xulosa va takliflar. Yoshlarni tarbiyalash, o’qitish, kelajakni boshqarib keta oladigan kishilar qilib voyaga yetkazish eng muhim vazifa, hatto murakkab muammolardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz yoshlari juda katta kuch. “Ma’naviyat, avvalo, ajdodlarimizning boy merosidan

oziqlanadi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi, insonlar orasidagi o'zaro ishonch va hurmatda namoyon bo'ladi. Ma'naviyat – bu xalq taqdiriga befarq emaslik, uning kelajagini birga qurish yo'lida jonbozlik ko'rsatishdir. Ma'naviyat har qanday davlat va jamiyatning mustahkam poydevori bo'la oladi. Bu poydevorning mustahkam bo'lishi davlatning kuchli bo'lishiga kafolat beradi".[10]

Agar ularning ijtimoiy tabaqalashtirish tomonlarini o'rganadigan bo'lsak, ular turli guruhlariga bo'linadi. Jumladan, ularni shahar yoshlari, qishloq yoshlari, talaba yoshlar, o'quvchi yoshlar, ishchi yoshlar, tadbirkor yoshlar, fermer, dehqon yoshlari va boshqa sohalarida shug'ullanayotgan yoshlarga bo'lish mumkin. Ularning hammasi o'ziga tegishli xususiyatga, xarakterga, bilimiga,

kasb-korga, qiziqishga ega. Bu bilan bog'liq mavzuni va masalalarni o'rganish alohida, maxsus ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Agar ma'naviyat sohasi bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, mustaqillik tufayli ma'naviyatimizning tarixiy ildizlarini o'rganishga, ma'naviyatini yuksaltirishga alohida e'tibor berila boshlandi. "Birinchi navbatda, – degan edi marhum davlatimiz rahbari, – milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitish, so'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqodining erkinligini ta'minlashimiz kerak".[11]

ADABIYOTLAR.

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимишни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз , “Ўзбекистон”1қисм НМИУ,2019й. 418 бет.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Аулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993, – Б.190.
3. Махаммаджон Абдурахмонов, Насимхон Рахмонов Маданиятшунослик дарслик Тошкент – 2008 193-bet [3-bet]
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. - 461 бет
5. Mamatov M.Monografiya Yangilanayotgan O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili . T-“MAKON SAVDO PRINT” 2024 - 222 bet
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2022 й, 6-сон).www.lex.uz
7. Маврулов А. “Маданият ва Учинчи Ренессанс ёхуд бекиёс ирода кучи ва виждон амри билан...” - “Янги Ўзбекистон” газетаси 2021 йил 10 декабрь.
8. Юсупов Э., Исмоилов Ф. Инсон баркамоллиги. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1990.
9. Жўраев Н. Ўзбекистоннинг маънавият стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2016. – 32 бет;
10. Бекмуратов М, Бегматов А Миллий менталитет ва маънавият. – Тошкент: Адолат, 2002.; Жўраев Н. Ўзбекистоннинг маънавият стратегияси. - Тошкент: Маънавият, 2016. –Б. 32
11. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1994. – Б. 65-66.